

O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**



“Tasdiqlayman”

**Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori**

O.R.Salixov

“ ” _____ 2026-y



“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

“ ” _____ 2026-y



“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston Badiiy
akademiyasi**

“ ” _____ 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari**

- 60210800 – Amaliy san‘at: badiiy kulolchilik
- 60210800 – Amaliy san‘at: me‘moriy yodgorliklar bezagini ta‘mirlash
- 60210800 – Amaliy san‘at: amaliy san‘at asarlarini ta‘mirlash
- 60210800 – Amaliy san‘at: badiiy zargarlik
- 60210800 – Amaliy san‘at: badiiy naqqoshlik

(kunduzgi va masofaviy) ta‘lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent – 2026

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashining 2026-yil "___" _____dagi "___"-son qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

D.T. Xaytmetov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, "Amaliy bezak san'ati" kafedrası dotsenti

K.M. Sidikov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, "Badiiy kulolchilik va ta'mirlash" kafedrası dotsenti v.b.

Taqrizchilar:

A.F. O'Imasov

Arxitektura fanlari falsafa doktori (PhD), O'zFA San'atshunoslik instituti katta ilmiy xodimi

N.A. Mansurov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, "Amaliy bezak san'ati" kafedrası dotsenti

Kirish

60210800 – Amaliy san’at: badiiy kulolchilik, 60210800 – Amaliy san’at: me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlash, 60210800 – Amaliy san’at: amaliy san’at asarlarini ta’mirlash, 60210800 – Amaliy san’at: badiiy zargarlik, 60210800 – Amaliy san’at: badiiy naqqoshlik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo‘nalishning kunduzgi va masofaviy ta’lim shakliga o‘qishga kirish bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo‘yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo‘yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlarida o‘qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta’lim sohasida islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda amaliy san’at sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san’atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko‘nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

I. Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar.

60210800-Amaliy san’at: badiiy kulolchilik, 60210800 – Amaliy san’at: me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlash, 60210800 – Amaliy san’at: amaliy san’at asarlarini ta’mirlash, 60210800 – Amaliy san’at: badiiy zargarlik, 60210800 – Amaliy san’at: badiiy naqqoshlik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kunduzgi va masofaviy ta’lim shakliga o‘qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan namuna 1-ilovaga muvofiq, “Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan namuna 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Chizmatasvir” fanidan “O‘simlik shakllari rozetka ishtirokidagi natyurmort” uslubiy fonda qo‘yiladi. Rozetkadagi o‘simlik shakli, plastikasi chuqur tahlil qilinishi shart. Natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof muhit inobatga olinishi kerak bo‘ladi. Predmetlar proporsiyasi katta va kichik hajm ko‘rinishlariga ahamiyat berilishi lozim. Bunda diqqatlilik, nafosat va yuksak estetik did talab qilinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Chizmatasvir”** fanidan amaliy ishni bajarish uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish	Jami 63 ball
1.	Natyurmortning kompozitsion joylashuvi	7 ball
	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	7 ball
	Rakurs holatining topilish darajasi	6 ball
	Katta va kichik shakllarning to'g'ri joylashganligi	6 ball
	Yorug' va soyani ishlanishidagi mahorat	6 ball
	Yuzaga to'g'ri joylashtirish	6 ball
	Rozetkadagi o'simlik shakli plastikasi ko'rinishi topilganligi	6 ball
	Rozetkani atrof muhit bilan bog'langanligi	6 ball
	Chizmatasvirda ketma-ketlikning to'g'ri bajarilishi	6 ball
	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	7 ball

“Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo'yicha topshiriqni moybo'yoq, akvarel, guash, tempra, akrillardan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, turli geometrik (doira, to'rtburchak, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, oltiburchak) shakllardan tuzilgan naqshni qog'ozga to'g'ri joylashtirish, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va plastik yechimining topilganligi, amaliy san'at mutaxassisligiga mosligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya- fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Kompozitsiya”** fanidan berilgan mavzu uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
1.	Tuzilgan kompozitsiyaning qog'ozga to'g'ri joylashtirilganligi	5 ball
	Kompozitsiya g'oyasi	5 ball
	Kompozitsiyaning mazmuni va mohiyati	5 ball
	Kompozitsiyani mutaxassislikka xosligi	5 ball

Kompozitsiyaning qonuniyatlaridan foydalanilganligi	5 ball
Asarning kompozitsion yechimi	5 ball
Kompozitsiyada bezaklardan to'g'ri foydalanilganligi	5 ball
Asarning kompozitsion ahamiyati	5 ball
Badiiy va g'oyaviy ifodasi	5 ball
Ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	5 ball
Kompozitsiyaning to'g'ri topilganligi	5 ball
Ranglardan foydalanish mahorati	5 ball
Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	5 ball
Kompozitsiyaning murakkablik darajasi	5 ball
Ranglar uyg'unligi	5 ball
Kompozitsiyaning ishlanish mahorati	5 ball
Kompozitsiyadagi elementlarning bir-biriga mutanosibliigi	5 ball
Kompozitsiyani pardoqlash	4 ball
Kompozitsiyaning tugallanish darajasi	4 ball

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi

60210800-Amaliy san'at: badiiy kulolchilik, 60210800-Amaliy san'at: me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash, 60210800-Amaliy san'at: amaliy san'at asarlarini ta'mirlash, 60210800-Amaliy san'at: badiiy zargarlik, 60210800-Amaliy san'at: badiiy naqqoshlik ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi va masofaviy ta'lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida Chizmatasvir fanidan qo'yilgan uslubiy fondagi topshiriqni, Kompozitsiya fanidan berilgan mavzu asosidagi vazifani bajaradi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 578-qaroriga 1-ilova "Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4-bob 30-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko‘rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

Arizalar faqat murojaatchining baholari va yozma ishi bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ishlari to‘g‘risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

IV. Adabiyotlar ro‘yxati


1. Boymetov B.B. Qalamtasvir. Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2006.
2. Bulatov S.S. Gulyamov K.M. Amaliy san’at. Darslik. – T.: 2014. – 542 b.
3. Gulyamov K.M. Amaliy san’at turlari. Darslik. – T.: Grant condor print, 2025. – 188 b.
4. Norchayev R.T. Chizmatasvir. O‘quv qo‘llanma . – T.: 2020. – 96 b.
5. Королькова Е.Ф. Краткие сведения о скульптурах для учебных постановок. учеб. – метод. пособие. – Т.: 2016 – 141 с.
6. Xaytmetov D.T. Amaliy san’at asarlarini ta’mirlashda ashyoda ishlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2020 – 124 b.
7. G‘ulomov K. Amaliy san’at. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 88 b.
8. Tashxodjayeva D. Ashyolar texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2017.

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: O‘simlik shakldagi rozetka ishtirokida tuzilgan natyurmort.

Namunalar:



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu

